

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Tabiiy kafedra

H. Саидова

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Geografiya darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Ilmiy rahbar _____

Taqrizchi _____

Himoyaga ruxsat etildi “ 23 ” may 2012 yil

Kafedra mudiri

Buxoro-2012

MUNDARIJA

Kirish	2
I. Bob. Geografiya darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish	
1.1. Geografiya darslariga qo'llaniladigan metodlar.....	5
1.2. Noan'anaviy darslarni tashkil etish.....	9
1.3. Pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati.....	15
II. Bob. Geografiya darslarida (V sinf – Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi) motivatsiya bosqichining ahamiyati	
2.1. Geografiya darslarida motivatsiyani qo'llashda interfaol usullardan foydalanish	20
2.2. V sinf – Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida axborot kommunikatsion vositalardan foydalanish orqali motivatsiya bosqichini amalga oshirish.	34
2.3. Mustaqil ishlarni tashkil etishda motivatsiyaning ahamiyati.....	39
Xulosa va takliflar.....	44
Foydalanilgan adabiyotlar	47

KIRISH

O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi, avvalambor, yangi avlod, unib - o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir.

I.A. Karimov

Ta'lim – tarbiyaga yetarlicha e'tibor bermagan mamlakatning kelajagi qanday ravnaq topishini aytish qiyin. Binobarin, har bir davlat o'z taraqqiyotiga ta'lim – tarbiya sohasida o'zi belgilagan maqsadalar va ko'zlagan rejalar bilan bog'langan vazifalarga tayanadi. Davlatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri mukammal kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish va uni amalga oshirish bilan bog'liq. Shu asosda ta'lim tizimi yanada mukammallashib boryapti. XXI asr ilg'or texnologiyalar asri hisoblanadi. Ilg'or texnologiyalarni fan va texnikaning yutuqlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi qonuni” va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingandan keyin zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e'tibor yanada kuchaytirildi. O'tgan davr mobaynida bizning jonkuyar muallimlarimiz, ustozlarimiz ta'lim va tarbiya jarayonida yangicha qarash, ta'lim samaradorligini oshirish borasida yangi usullarini qo'llash yo'nalishida ko'pgina samarali ishlarni amalga oshirdilar. Shuningdek qo'lga kiritilgan yutuqlar natijasida yangi pedagogik texnologiya atamasidan foydalana boshladik. “Yangi” so'zning ishlatilishida ham ma'no bor. Oldingi ta'lim tizimidagi “Men gapiraman, sen tingla” dars o'tish uslublaridan voz kechildi, ayniqsa dars o'tishda o'quvchilarning mustaqil fikrlashni rivojlantirishga katta e'tibor berildi.

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi o'quvchi – o'quvchilarga samarali bilim berishdan, oqil, ma'rifatli, ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatleri millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan

malakali ixtisos egalari bo'lib yetishadigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Bugungi kunda zamonaviy dars berishning turlicha usullari qo'llanilib kelinmoqda.

Respublikamiz prezidenti I.A. Karimov ta'lim sohasiga ham keng yo'l ochib berdilar. Bunda ta'lim sohasida chora – tadbirlar va dasturlar ishlab chiqildi. O'tgan yili mamlakatimizda haqiqatdan ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim ijtimoiy dasturlar – Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limining rivojlantirish Davlat umummilliy dasturining ijrosi amalga oshirish nihoyasiga yetkazildi. 9 – yillik umum ta'lim maktab bosqichini va 3 – yillik o'rta maxsus, kasb- hunar ta'lim bosqichini o'z ichiga olgan uzluksiz yaxlit ta'lim tizimi yaratildi. Bir so'z bilan aytganda, farzandlarimizga umumiy ta'lim bilan birga zamonaviy kasb- hunarga ega bo'lish imkonini beradigan 12 yillik ta'lim tizimiga o'tish yakunlandi.

Men ushbu bitiruv malakaviy ishimning tanlashdan maqsad, bu oliy dargohni bitirganimdan so'ng kelgusida maktablarda o'zimning qobiliyatimni qo'llagan holda, yosh o'quvchi – o'quvchilarga bilim berish bilan birga, ularga yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, darsni samaradorligini oshirish, u bilan bog'liq geografiya fani darslarida o'quvchilarning savodxonligini oshirish, darsni qiziqarli tashkil etish uchun bitiruv malakaviy ishim mavzusi bo'lgan “Geografiya darslarida motivatsiya bosqichining o'rni va ahamiyati” mavzudan keng foydalanib, mavzuga barcha o'quvchilarni ishtirok etishlarini ta'minlashda bu albatta o'z samarasini ko'rsatadi.

Motivatsiyaning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi – o'quvchilarning mustaqil fikrlashiga, o'z fikr va mulohazalarini bayon etishga izlanishga yo'naltiradi, o'quvchi - o'quvchilar mustaqil o'qishga va izlanishga tayyorlaydi. Asosiysi sinfdagi barcha o'quvchilar darsga ishtirok etadilar.

Men Buxoro shaxridagi 31 – davlat umumta'lim maktabda pedagogik amaliyot davrida ham V sinf o'quvchilariga “Tabiiy geografiya” darslarida motivatsiyadan keng foydalandim. Men ushbu ishimni kelajakda ham davom

ettirib, mamlakatimiz yosh avlodlariga ta'lim – tarbiya berib, yurtimizga foydasi tegadigan komil va har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash mening asosiy maqsadlarimdan biridir.

Men bu bitiruv malakaviy ishimni yozishdan maqsad kelgusida ham ushbu mavzuimni o'quvchi – o'quvchilarga dars o'tish jarayonida qo'llab, kelajakda yetuk, ijodkor o'qituvchi bo'lishga va'da beraman.

Men bitiruv malakaviy ishimni yozish jarayonida kafedramizning izlanuvchan, ijodkor o'qituvchilarimizdan maslahatlar oldim va tegishli manbalarni o'rgandim, buning uchun men ustozlar bergan bilimlarini oqlashga harakat qilaman va ularga chuqur minnatdorchilik bildirgan holda ularga samimiy tilaklarimni bildirib, ular izidan borish mening eng oliy maqsadimdir.

I. BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

1.1. Geografiya darslariga qo'llaniladigan metodlar

«Metod» atamasi yunoncha «methodos - tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot» so'zidan kelib chiqqan bo'lib - tadqiqot yo'li, haqiqatga intilish, bilish, harakat qilish yo'llari, kutilayotgan natijaga erishish usuli ma'nosini anglatadi. Metod deganda voqelikni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish usullari tushuniladi. Faoliyatning turli jabhalarini o'rganishni qamrab olgani holda ilmiy bilish va uning usullari metodikaning asosiy yo'nalishidir. Unda ta'lim va tarbiya berish usullari asosiy o'rinda turadi. Odatda metodika (uslubiyat) deganda ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan tushuniladi. Bu - nazariy jihatdan qo'yilgan maqsadga yetish, haqiqatni, reallikni, faoliyatni nazariy yoki amaliy bilish, o'rga-nishning usullari yoki operasialari majmuidir.

Pedagogik amaliyotda, an'anaga muvofiq, o'quv - tarbiyaviy maqsadlarga erishish uchun qo'llanilayotgan, tartibga solingan faoliyat usuli metod deb tushuniladi. Bunda o'qituvchining o'qitish faoliyati usullari bilan o'quvchining o'qish faoliyatining usullari bir-biriga bog'liqligi ta'kidlanadi.

O'qitish metodi quyidagicha tavsiflanadi: o'qitishning maqsadi, o'zlashtirish usuli, o'quv jarayoni qatnashchilari (o'qituvchi, o'quvchi, talaba)ning o'zaro munosabati.

O'qitish metodikasi tushunchasi:

a) pedagogning o'qitish usullari va o'quvchining o'qish usullari hamda o'quvchining o'qituvchi bilan o'zaro bog'langanligini;

b) o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishish bo'yicha hamkorlikda ishlashning o'ziga xosligi, ya'ni, o'qitish metodlari belgilangan maqsadga yetish uchun ta'lim vazifalarini hal etishda o'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyatidir.

Metod-jarayonning o'zagi, rejalashtirilgan maqsadni yakuniy natija bilan bog'lovchi bo'g'in. «Maqsad – mazmun – metodlar – shakllar - o'qitish

vositalari» tizimidagi rollarni aniqlovchidir.

Ta'lim metodlari bir tomondan, ob'yektiv xarakterga ega bo'lib, qaysi pedagog qo'llashidan qat'i nazar, doimiy amal qiladigan mustahkam qonun-qoidalar bilan bog'liq. Ular barcha didaktik qoidalar, qonunlarning talabi hamda maqsadlarning doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining mazmuni, shaklini ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, sub'yektiv xarakterga ega bo'lib, u pedagog shaxsi, o'quvchi-talabalarning o'ziga xos tomonlari, aniq sharoit bilan belgilanadi,

Metodlarning ob'yektiv hamda sub'yektiv xakteri haqidagi fikrlar xilma-xildir. Metodlarning ob'yektiv xakterini butunlay inkor kilib, uni to'liq sub'yektiv xakterga ega, shuning uchun ham takrorlanmasdir, u har bir pedagogning ijodi tarzida yuzaga chiqadi, degan fikr bildiruvchilardan tortib, uning tamomila aksi bo'lgan, to'la ob'yektiv xakterga ega deydiganlar ham mavjud. Haqiqat, odatda, barcha fikrlarning o'rtasida tug'iladi. Aynan hamma metodlar uchun doimo umumiy bo'lgan obyektiv tomoni, didaktika nazariyasi, ko'p holatlarda esa eng yaxshi bo'lgan amaliyot yo'llari tavsiya etiladi.

Metodlarning obyektiv jihatlarida barcha didaktik qoidalar, qonunlar, tamoyillar, ta'riflar, mazmun butunligining doimiy komponentlari, o'quv faoliyatining shakllariga xos bo'lgan umumiy tomonlar aks etadi. Metodlarning sub'yektiv jhati pedagog shaxsi, uning mahorati, ta'lim oluvchilarning o'ziga xosligi va aniq sharoitga bog'liq.

Dars jarayoni har ikki tomon bir butun bo'lib, birlashgan holda tashkil etiladi. Uning amaliy ifodasi qo'yilgan maqsadga ko'ra erishilgan natijada o'z aksini topadi. Metodlarning obyektiv jhatini didaktik prinsip nuqtai nazaridan talqin etish, uning nazariyasini ishlab chiqish, amaliyotda qo'llanishi zarur bo'lgan eng yaxshi metodlarni tavsiya etish, mantiqiy tanlash muammolarini muvaffaqiyatli yechish imkonini beradi.

Metodlarni optimallashtirish uchun esa pedagoglar mahorati, ijodiy yondashish zarur bo'ladi. Shuning uchun ham o'qitish metodlari yuqori

darajadagi san'at bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Metod nihoyatda serqirra bo'lib, juda ko'p komponentlarni jamlaydi. Murakkabligi uchun ham metodni yagona ma'noga ega tarzda ifodalash qiyin. Shu bois metodning mazmun-mohiyatini, sifatlarini soddalashtirilgan variantdagi ta'riflarda berishga to'g'ri keladi.

Sharq mutafakkirlari ham bilishning metodlariga katta e'tibor bilan qaraganlar. O'quv jarayonini tashkil etish va o'qitish metodlariga alohida e'tibor bergan alloma Aristoteldan so'ng «ikkinchi muallim» deb nom qozongan Abu Nasr Forobiy o'qitish metodlari haqidagi asarlarida ta'lim oluvchilarga turli bilimlar berish bilan birga mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatgan, bilim olish zarurligiga shak-shubhasiz ishontirish lozimligini ta'kidlagan.

Hozirgi terminlardan foydalanib, Sharqning qomusiy allo-malarining o'qitish metodlarini bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlasa bo'ladi. Ular foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Bular Ibn Sino qo'llagan ko'rgazmali-tajriba metodlari, Abu Rayhon Beruniy, Al Xorazmiyning ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, Forobiy va Al Xorazmiyning bilimlarni tekshirish metodlari va boshqalardir. Ularning hammasi o'quvchi-talabalarning faoliyatini kuchaytirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadini ko'zlagan.

Metodika va uning vazifasi. Metodika pedagogikaning tarki-biy qismi (pedagogika yunoncha paidagogike) bo'lib, insonni shakllantirishda muayyan maqsad sari qaratilgan sistematik faoliyat to'g'risidagi hamda ta'lim-tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari (uslublari) haqidagi fandır.

Metodologiya esa (yunon. metod va logiya so'zlaridan) faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limotdir.

Metodika tushunchasi usul, metod tushunchalarini qamrab oladi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liq. Metod usulga nisbatan juda keng ma'noga ega. Metodning o'zi bir necha usullarni o'z ichiga qamrab olishi mumkin. Shu bilan birga, metod usul sifatida, usul metod sifatida ham namoyon bo'lishi

mumkin.

Usul - bu metodning bir unsuri, uning tarkibiy qismi, bir martalik faoliyat, metoddagi alohida bir tashlangan qadam.

O'qitish metodi - murakkab, ko'p o'lchovli, serqirra tushuncha, agar biz uni fazoviy modelini chizishni uddalaganimizda, qarshimizda qirralari ko'zni qamashtiradigan va rang-barang tovlanadigan ajoyib billur namoyon bo'lardi.

O'qitish metodlari, bu - pedagogik texnologiyaning nerv tomirlari, chunki qo'yilgan maqsadni qanday amalga oshirish, qanday natijaga erishish aynan qaysi metodni qay tarzda qo'llashga bog'liqdir.

1.2. Noan'anaviy darslarni tashkil etish

XX asrning oxiri va XXI asr boshida jamiyatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlarning shakllanishi milliy istiqlol mafkurasining vujudga kelishi, o'z tilimiz, tariximiz va madaniyatimizga va uni tiklanishi axborotlar hajmining keskin ko'payishi, fan va texnika taraqqiyoti bu ta'limning asosiy halqasi bo'lgan darsni mazmunan isloh qilish zaruriy omillardir. Keyingi yillarda metodik adabiyotlarda, “an'anaviy dars”, “noan'anaviy dars”, “zamonaviy darsning” o'zi nima? – degan savollarga aniqlik kiritishimiz juda ham zarur.

Zamonaviy dars haqida ba'zi bir olim, metodist, maktabda ishlayotgan o'qituvchilarning fikrini keltirmoqchimiz. M.A. Danilov, M.N.Skatkinlar “Zamonaviy dars – o'quv jarayonini faollashtirishdir” deb hisoblashadi. V.V. Davidov va D.B. Elkovin “Zamonaviy dars – nazariy tafakkurini rivojlantirish” deyдилar. M.I.Maxmutov, A.M. Matyushkin, I.YA. Lerner “Zamonaviy dars – bu muammoli ta'limdir” deb tarif berganlar. V.V. Shatalov “Zamonaviy dars – har bir o'qituvchini va hammani o'qitish” deb hisoblaydi. O'zbekistondagi pedagog, olimlar ham o'z tadqiqotlari davomida zamonaviy dars muammolariga e'tiborni qaratib “Zamonaviy dars –eng avvalo, o'quvchi shaxsining ta'lim olish ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga o'rgatuvchi usullar majmui” deb ko'rsatishadi.

Mazkur fikrlar, darsdagi asosiy e'tiborni o'qituvchi faoliyatidan o'quvchilar faoliyatiga (ularning ta'lim olish jarayoniga) ko'chirish lozimligini ko'rsatib turibdi. O'qituvchi darsda o'zi “so'rab” o'zi “gapirib beruvchi” bo'lib qolmasligi kerak, balki o'quvchilarga yangi bilimlarni o'zlashtirishida yaqindan turib ko'maklashuvi lozim. O'qituvchi bilim olish yo'lini o'quvchiga ko'rsatibgina qolmasdan, balki unga erishishda o'quvchiga hamkor bo'lishi zarur. Zamonaviy darsga qo'yiladigan talablarni shartli ravishda to'rtga ajratish mumkin.

- Tarbiyaviy talablar.
- Psixologik talablar.
- Gigiyenik talablar.
- Didaktik talablar.

Ko'rsatib o'tilgan talablar bilan bir qatorda pedagogik texnologiyalarga asoslanilgan talablar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun yuqoridagi talablar bilan bir qatorda quyidagi talablar ham qo'yiladi;

Birinchidan, ta'lim oluvchilarning maksimal faolligini taminlash.

Ikkinchidan, maqsadlarning harakat va amallarga to'g'ri ifodalanishi.

Uchinchidan, dars boshida qo'yilgan maqsadning dars so'ngida to'la amalga oshishiga erishganlik.

To'rtinchidan, dars loyihasining maqsadlarga erishishda kafolat bera olishini taminlashi.

Darsda qo'yiladigan tarbiyaviy talablar – o'quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, eng yaxshi axloqiy sifatlarini, olgan bilimni hayot bilan bog'lay olishini, vatanni uning tarixi, madaniyati, urf - odatlarini, eng asosiysi insonni hurmat qilishni, ilmiy dunyoqarashni, estetik didni, kasb – hunarga qiziqishni, iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirishni tarbiyalashi kerak.

Darsga qo'yiladigan psixologik talablar o'quvchilarning individual – psixologik xususiyatlarini bilgan holda ularga xotira, ongli idrok etishni, mustahkam irodani, tasavvur qila olishni, mavhum hodisalarni tafakkurlay olishni o'quvchilarda davlat ta'lim standartlari qo'ygan talablarni ular yoshiga mosligini hisobga olishni taminlashdan iboratdir.

Darsda qo'yilgan gigiyenik talablar – sinfdagi havo harorati, yorug'lik miqdori uning tozaligini estetik did bilan jihozlanishi, o'quvchilarga beriladigan topshiriqlarning ular yoshiga mosligini hisobga olish kabilarga rioya qilish shart. Zamonaviy darsga qo'yilgan didaktik talablar quyidagilardan iborat.

- Darsning ta'limiy – tarbiyaviy maqsadini aniq belgilash.
- Dars mavzusini qiziqarli, ilmiy faktlar bilan boyitish.

- Dars mavzusining mohiyatini o'quvchilarning o'zi mustaqil fikrlab o'zlashtirishga erishish.
- Darsda barcha o'quvchilarning faol ishtirokini taminlash.
- O'quv materialini o'quvchilar tomonidan sodda tarzda qabul qilishga, hayot bilan chambarchas bog'lanishga erishish.
- Mavzu mazmuniga mos ta'lim metodlarini tanlash. Bu metodlar asosan qisman izlanish hamda izlanish darajasiga bo'lishi zarur. Mavzu mazmuniga mos ta'lim vositalarini tanlash va ulardan ko'proq o'quvchilarning foydalanishiga erishish.
- O'quvchilarning bilim manbalari bilan mustaqil ishlashga o'rgatib borish. O'quvchilarni dars mazmuniga mos ravishda milliy istiqlol mafkurasi, o'z tarixi, tili, urf – odatlari hamda boy madaniyatimiz bilan faxrlanishga o'rgatish.
- Dars mavzusini boshqa o'quv fanlari bilan bog'liqligini taminlash. O'quvchilarda yaxlit ilmiy dunyoqarashning shakllantirish.
- Dars mavzusini o'lkashunoslik tamoyiliga asoslanib o'rganish. O'quvchilarda dars mavzusiga mos ravishda iqtisodiy, huquqiy, ekologik madaniyatni tarkib toptirish. Darsda Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talablarni to'liq bajarilishiga erishish. O'quvchilar o'zlashtirishgan bilim sifatini xolisona baholanishiga erishish.

Zamonaviy ta'lim respublikamizda ko'p bosqichli tizimga o'tdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimi islohotlari dunyo bo'yicha o'zbek modeli deb e'tirof etilmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda bir qator g'arb davlatlari modellaridan unumli foydalanilmoqda.

Ta'limda pedagogik shakllarning muhim xususiyati muloqot materiali sifatida bilimlardan emas, balki axborotlardan foydalanishdir. Bilim va axborot o'rtasida farq shundaki, bilimlar - voqealikni bilishning jamiyat amaliyotidagi tekshiruvdan o'tish natijasida, asosiy xususiyati haqidagi to'g'ri kelishi va

ziddiyatlardan hosil bo'lish demakdir. Axborot – mavjud ma'lumotdir, u aksariyat gapirayotgan kishilarning har qanday bo'ladigan ishonchliligi jihatidan shubha tug'diradigan va odatda bir – biriga to'g'ri kelmaydigan hatto ziddiyatli fikrlarni ham o'zida aks ettiradi. Ta'lim tizimi muammosi ham xuddi shundadir. Muloqotning o'qitib o'rganish singari an'anaviy pedagogik shakllari o'z samarasini bermaydi qo'ydi.

Izlanishga, qidirishga yordam beradigan mo'ljallarni tushuntirar ekanlar o'qituvchilar talablarini o'qigan narsalarni so'zlab berishga emas, balki muallif fikrini rivojlantirishga o'rgatib boradilar, o'quvchining bilish sohasida faolligini jonlantiradilar. Shunigdek, muallim o'quv materialini o'zlashtirish jarayonining tashkilotchisi u barcha shakllardagi o'qitish metodikasini ya'ni ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, o'quvchining mustaqil ishlari uslublarini bilishi, egallab olgan bo'lishi lozim. O'qishga ishtiyoq, qiziqish uyg'otish, ayniqsa undan huzur topib, mamnun bo'lish, uni olib borishda yaxshi natijalar beradi. Bilim, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtirishda o'quvchining faolligi, qiziqishi, ijodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalar ana shunga ko'p jihatdan yo'l ochadi. Axborot, kuchi moddiy texnika resurslari turli – tuman bo'lsa, katta hajmdagi bilimlarni juda qisqa vaqt ichida o'zlashtirib olish imkoniyati tug'ilmoqda.

O'qitish o'quvchi faoliyatini gavdalantiradigan sharoitda olib boriladi va muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan. Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni guruh bo'lib, jamoa faoliyatida birgalikda o'zlashtirish imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Bu jarayonlarda o'quvchining va o'quvchilarning fikrlash faoliyatida jonlanish yuz berib faollik oshadi. O'quv mashg'uloti o'yinlar, munozaralar, vaziyatga doir topshiriqlar va boshqa o'qitish shakl va usullarida olib boriladi.

Yangi asr kishilarida faollik bilan mustaqil ish olib borish, tezkorlik bilan qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashuvni talab qiladi. Shu bois ham ta'lim tizimida birinchi navbatda dars berish faoliyatiga birlamchi

e'tibor qaratilmoqda. Noan'anaviy ta'limda o'qituvchi yoki darslik asosiy bilim manbai, bilish jarayonining nazoratchisi bo'lgan bo'lsa, shaxsga mo'ljallangan ta'limda o'qituvchining vazifasi o'quvchi – o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish ularning o'quv faoliyatini yo'nalishga solib aniqlab borishdan iborat bo'lmoqda.

Yangi ta'lim texnologiyalarni keng joriy etish o'quvchi – o'quvchilarning faollik bilan o'qish va muammolarning mustaqil ravishda yechimini topish hamda o'quvchilarning o'z imkoniyatlari darajasida nimalarga qodir ekanligini to'la shakllantirishga katta imkoniyatlar beradi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayonidagi yangicha yondashuvlarni talab etadi.

Bugungi kunda quyidagilar an'anaviy ta'limning kamchiliklari sifatida e'tirof etilmoqda:

- ✓ ta'lim jarayonida o'qituvchining ko'proq faollik ko'rsati-shi, faqat tushuntirish, buyruq berish, o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi;

- ✓ ta'lim jarayonida o'quvchilarga asosan nazariy bilim (ma'lumotlar) berilishi;

- ✓ ta'limda majburiylik, nasihatgo'ylik, qattiqqo'llik, avto-ritarizm tamoyillariga amal qilish;

- ✓ o'quvchilarning faollik ko'rsatmasligi, faqat o'qituvchining ma'ruzasini tinglashi va topshiriqlarni bajarishi, ularning mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka o'rgatilmassligi;

- ✓ ta'limning o'rtacha darajada bilim oluvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qitishning interfaol usullari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishni taqozo etadi. O'qitishning interfaol usullari afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ✓ o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teng hamkorlik o'rnatiladi;
- ✓ dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchining ichki motivatsiyasi-ga tayaniladi: majburlab o'qitilmaydi, o'quvchi o'quvchilar tabaqa-lashtirilib o'qitiladi;
- ✓ ta'lim berishda o'quvchi-o'quvchilarning aqliy rivojlan-ganlik darajasi, qobiliyati e'tiborga olinadi;
- ✓ o'quvchi-o'quvchilar ko'proq mustaqil ta'lim oladilar;
- ✓ ta'lim jarayonining ob'yekti o'qituvchi emas, o'quvchi hisob-lanadi;

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash o'qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas'uliyatini yanada oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qitish emas, balki ularni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Demak, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishda, muhim omil hisoblanadi.

1.3. Pedagogik texnologiyaning mazmun-mohiyati.

Fan – texnika taraqqiyoti ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalariga mos holda kadrlarni talab qiladi. Pedagogik texnologiya haqida juda ko'p pedagog olimlarimiz samarali izlanishlar olib borishgan va unga turli xil usuldagi ta'riflar berishgan. Pedagogik texnologiya aslida insonlarni tarbiyalash vositasi sifatida qo'llanilishi azaldan mavjud bo'lib, ta'limda keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda. Aslida “texnologiya” so'zi 1872 – yilda fanga kirib kelgan va yunoncha “texnos” – hunar, “logos” - fan so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, “hunar fani” degan ma'noni bildiradi. “Pedagog” esa boshqaruvchi, yetaklovchi degan ma'noni anglatadi. Demak, pedagogik texnologiya o'qituvchi tomonidan boshqariladigan ta'lim – tarbiya jarayoni ekan. Uning samarasi esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. Ma'lum va no'malum narsalarni mantiqan bog'lab, mantiqsiz ta'lim ongli ta'lim bo'la olmaydi. Siz o'qiyotgan yoki o'qitayotgan fan asosiy emas, o'quvchi asosiy ekanligini unutmaslik. O'quvchilarni olgan bilimlarini amalda qo'llash holatiga tushuntirish. Ta'lim samarali bo'ladi, qachonki siz ishlatishga oid misollar ko'proq keltirish. Har bir narsadan asosiysini topishga o'rgatish. “Nimaga?”, “Nima uchun?” savoliga javob topishga o'rgatish. Diqqatni bo'luvchi narsalarni ishlatmaslikka, qo'llamaslikka, oldini olishga harakat qilish va uni oldindan choralarni ko'rish. Bilim olishning optimal – qulay yo'llarini o'rgatish. Har bir shaxsning individual xususiyatlarini bilish, shunga mos o'qitish va muomalada bo'lish. O'ylashga, fikrlashga, mustaqil ishlashga o'rgatish. Yordamchi narsalar ko'chirish, aytib turish, nusxa olishga o'rgatmaslik. Ijodiy tafakkurni oshiruvchi mashqlarni ko'proq qo'llash. Savol berish, javob aytish qoidalari, psixologiyasini bilish, faolligini oshirish. Motivni g'oya bilishga o'rganish.

Geografiya darslarida karta, globuslardan foydalanish. Zero, ko'rish orqali eshitishga nisbatan 5 marta ko'proq va 13 marta ko'proq taktik organlarga nisbatan ko'proq ma'lumotni miyaga yetkazadi. Bu ma'lumotlar tez, oson va mustahkam o'rnashib qoladi. So'z bilan emas, namoyish bilan ko'proq, tez va

oson tushunib olish mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, bola rang va shakl, tovush (ohang) orqali tezroq tushunadi. Tushuncha, bilim aniq dalil va ko'rgazma bilan samarali ekanligini unutmaslik. Ko'rgazmalik materiallardan foydalanish, ammo juda ko'p emas, chunki bu o'quvchi diqqatini bo'lib, charchatib, asosiysidan chalg'itadi. Ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar bilan birga tayyorlash samarali bo'ladi. Ko'rgazmali qurol ishlata turib, diqqat, kuzatuvchanlik tafakkur, madaniyati, loyihalash, ijodkorlik va o'qishga qiziqishni oshirish. Tezkor usullar bilan o'quvchilar bir necha soatda o'rganishi kerak bo'lgan narsani bir soatda o'rgatish va hamma narsa tabiiy bo'lsin. O'quvchilarda har bir mavzu, bob, bo'lim va umuman dastur bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka talab qilib, ular o'z bilimlarini tizimga solishiga yordam beradi.

Bilimlarni o'zlashtirishda bu jarayonning mustahkamligi juda murakkab bo'lib, olimlarning oxirgi ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, ixtiyoriy yodda saqlashdan mustahkamroq bo'lar ekan. Bu esa o'z navbatida yangi qoidalarni keltirib chiqaradi. Chunki ixtiyoriy yodda saqlashdan ko'ra ixtiyorsiz yodda saqlash mustahkamroq bo'larkan. Bu esa o'z navbatida yangi qoidalarni keltirib chiqaradi, chunki ixtiyoriy yodda saqlash lozimligi asosidagi qoidalar o'z kuchini yo'qotadi va quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Zamonaviy ta'limda xotira asosiy rol o'ynab, kerak bo'lmagan bilimlarni yodda saqlab turish va xotirani charchatib, tafakkurni pasaytirmaslik lozim. O'quvchilar xotirasida yaxshi tushunmagan masalalarni qoldirmaslik, faqat tushungan, yaxshi bilgan narsani qoldirishga harakat qilish. Qoriday yodlash emas, kerak bo'lganda manbalardan foydalanishga o'rgatish. O'rganganini yodda saqlashning psixologik qonuniyatlarini yana bir bor o'rganib chiqish. Esda saqlashi lozim bo'lgan material juda katta bo'lmay, qisqa qatordan iborat bo'libgina qolmasdan (hozirgi adabiyotlarda "Yodda saqlang" degan ogohlantirish bor) o'quvchilarga ixtiyorsiz yodda saqlash haqida ko'rsatma berib buning o'rniga qiziqtirish va qiziqishni o'stirish. "Takrorlash – bilimning onasi", ammo tez - tez takrorlash


esa zerikarli va tez unutish garovi ekanligini unutmaslik. O'quvchilar diqqatini bo'luvchi narsalar – kechikish, boshqa ish bilan mashg'ullik, ular fikrini chalg'itib, kimningdir sinf xonasiga kirishi kabilarga yo'l qo'ymaslik. Har bir o'quvchining imkoniyat darajasida, ammo to'liq kuch bilan ishlashga o'rgatish. Qiziqishni va darsda ijobiy munosabatni shakllantirmay (psixologik iqlim yaratmay) turib darsni boshlab bo'lmaydi. Ma'lumotlarni mantiqiy bog'lanish orqali uzatish (ketma – ket va qiziqarli qilib). Ta'lim jarayoninig samaradorligi pasayishini sezishingiz bilan darhol sababini aniqlab, tuzatishga harakat qilish. (charchoq qiziqishning susayishi, motivning yo'qligi, kayfiyat, munosabat va hokazolar). O'quvchilarning ixtiyoriy diqqatidan foydalanib “tarbiyalamaslik” kerak. Undan ko'ra hazil, qiziqarli voqea, holat bilan darsni qiziqarli qilib o'tish. Bilimning mustahkamligi mustaqil takrorlash, bir – biriga o'rgatish va bir – biridan o'rganishga bog'liqligini unutmaslik kerak. O'z materialini tabaqalashtirishga harakat qilib, hammasini emas, asosiysini topib ko'rsata bilishdir. Motivni qo'ymasdan, bilim olishga intilishini shakllantirmasdan turib yangi bilimni berish mumkin emas. Majbur bo'lib, o'rgangan narsa mustahkam bo'lmaydi. Takrorlashni yangi bilim berish darsiday o'tmasdan, o'quvchilarga erkinlik berish. Bilimni mustahkamlash hissiyotga, ko'rgazmalilikka, texnik vositalarga, didaktik o'yinlarga, o'quv munozaralarga, muammoli va izlanuvchanlik ta'limiga bog'liqligini unutmaslik. Yangi bilim berishni oldingilari bilan bog'lab, yanada yangilashga harakat qilib uni o'rgatish. Oson topshiriq berib zeriktirmaslik qiyin topshiriq berib zo'riqib qolmasligi kerak. O'quvchilarga darsni qoldirish, kechikib kelish, yalqovlik qilish, boshqa ish bilan mashg'ul bo'lishiga yo'l qo'ymasdan va yo'l qo'ydirmaslik, bilimlarni o'zlashtirish darajasini nazorat qilib turish va hokazolar.

Pedagogik texnologiyaga o'z mohiyatiga ko'ra sub'yektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holada ijobiy tashkil etishi lozim.

Qanday shakl, metod vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar:

- O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- Pedagogik faoliyat (ta'lim – tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirish;
- O'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini taminlash;
- O'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- O'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart – sharoitlarini yaratish;

Bunday usullardan ko'proq foydalanilsa bu darsning samaradorligini ham, o'quvchilarning esa darsga bo'lgan qiziqishi u bilan bog'liq holda fikrlash qobiliyati, nutq madaniyati rivojlanadi va o'quvchi darsga bo'lgan ma'suliyatini ham biroz bo'lsada sezadi va ijobiy natijalarga erishiladi.



II. BOB. GEOGRAFIYA DARSLARIDA (V SINIF – TABIIY GEOGRAFIYA BOSHLANG'ICH KURSI) MOTIVATSIYA BOSQICHINING AHAMIYATI

2.1. Geografiya darslarida motivatsiyani qo'llashda interfaol usullardan foydalanish

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qitishning interfaol usullari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishni taqozo etadi. O'qitishning interfaol usullari afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- ✓ o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teng hamkorlik o'rnatiladi;
- ✓ dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchining ichki motivatsiyasiga tayaniladi: majburlab o'qitilmaydi, o'quvchilar tabaqalashtirilib o'qitiladi;
- ✓ ta'lim berishda o'quvchi-o'quvchilarning aqliy rivojlanganlik darajasi, qobiliyati e'tiborga olinadi;
- ✓ o'quvchilar ko'proq mustaqil ta'lim oladilar;
- ✓ ta'lim jarayonining ob'yekti o'qituvchi emas, o'quvchi hisoblanadi;

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash o'qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas'uliyatini yanada oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qitish emas, balki ularni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Demak, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishda, muhim omil hisoblanadi.

Yangi asr kishilarida faollik bilan mustaqil ish olib borish, tezkorlik bilan qarorlar qabul qilish, o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashuvni talab qiladi. Shu bois ham ta'lim tizimida birinchi navbatda dars berish faoliyatiga birlamchi e'tibor qaratilmoqda. Noan'anaviy ta'limda o'qituvchi yoki darslik asosiy bilim manbai, bilish jarayonining nazoratchisi bo'lgan bo'lsa, shaxsga mo'ljallangan ta'limda o'qituvchining vazifasi o'quvchi – talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish ularning o'quv faoliyatini yo'nalishga solib aniqlab borishdan iborat bo'lmoqda.

Interfaol usullarning afzalliklari – o'qitishning interfaol usullari: tushuntirish, ko'rsatmalilik vositalardan foydalanish kabi an'anaviy usullardan uning yuqori samaradorligi, o'ziga xos pedagogik aloqalar, o'qituvchining mahorati yuqori bo'lib, u o'quvchilarni shaxs sifatida shakllanishi, xususiy qobiliyatlarni oshirish, ijodiy mustaqilligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. O'qitish talaba va o'quvchi faoliyatini gavdalantiradigan sharoitda olib boriladi va muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan. Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni guruh bo'lib, jamoa faoliyatida birgalikda o'zlashtirish imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Bu jarayonlarda talabaning va o'quvchilarning fikrlash faoliyatida jonlanish yuz berib faollik oshadi. O'quv mashg'uloti o'yinlar, munozaralar, vaziyatga doir topshiriqlar va boshqa o'qitish shakl va usullarida olib boriladi.

Klaster usuli – bu (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarda ixtiyoriy muammo (mavzular) xususida erkin, ochiq o'ylab va shaxsiy fikrlarni bemalol, bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkonini beruvchi tuzishni aniqlash talab etiladi.

“Klaster” usuli aniq ob'yektda yo'nalmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu metod muayyan o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilgunga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu metod puxta o'ylangan bo'lib, unda o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Klaster usuli orqali o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun hozirda o'qitilayotgan darsliklardan foydalanilsa, albatta samara beradi. Masalan V - sinflarda Yerning harakatlari haqida mulohaza yuritinglar deb savol qo'yilsa bunda albatta o'quvchilar darhol fikrlarini yig'ib olib, diqqat e'tiborini mavzuga qaratadilar. O'quvchilarga savollarning javob varaqasi beriladi. O'quvchilar varaqalarda darhol to'g'ri javobni yozish shart emasligi unda nimani yozishni o'ylab turishadi. Unda biroz vaqt beriladi. Ular yozgan ma'lumotlari, albatta uning imloviy xatosiga e'tibor berilmaydi, yozayotgan ma'lumotlarning sifatiga e'tibor berilmaydi. Ular o'ylagan narsalari nafaqat shu mavzuga doir balki boshqa mavzu bo'yicha ham o'z fikrlarni yozib hozirgi mavzu bo'yicha uni bog'lashga harakat qilishlari kerak bo'ladi.

Ushbu mavzuga bir necha minut vaqt ajratiladi, vaqt nihoyasiga yetmaguncha o'quvchilar yozishlari kerak bo'ladi. Agar ma'lum vaqtgacha ushbu mavzu bo'yicha g'oyalar tug'ilmasa unga doir biror rasm, ko'rgazmani chizib uni esga saqlash ya'ni esiga tushurish imkonini beradi. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surishga hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qilishadi. G'oyalarning yig'indisi sifat va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishini cheklamaslik kerak. Ushbu klaster usuli o'quvchilarning mavzuni takrorlash va esda saqlash qobiliyati, nutq madaniyatining rivojlanishiga tasiri juda katta.

Aqliy hujum usuli – biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan usuldir. Usulning yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklda ta'lim beruvchi og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar qog'oz, kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda bayon etadilar. Yozma shaklda, javoblar doska (magnitlar yordamida) yoki “pinbord” doska (ingichka igna yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining ya'ni usulning yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. “Aqliy hujum” usulidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, ta'lim oluvchilarga muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bu usul ta'lim oluvchilarga ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” usuli ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlab, bu usul darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda mavzudan so'ng darsning maustahkamlash qismida amalga oshiriladi. “Aqliy hujum”ning usulini bosqichlari quyidagilardan iborat:
 - Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi.
 - Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr mulohazalarini bildiradi.

- Ta'lim oluvchilarning fikr – g'oyalari (magnitafonga, qideotasmaga, ranglik qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi.

Fikr – hoyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

- Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlanib olinadi.

“Aqliy hujum” usulining qo'llanishga amaliy qoidalar quyidagilar;

- Bildirilgan fikr – g'oyalar muhim qilinmaydi va baholanmaydi.
- Bildirilgan har qanday fikr hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
- Har bir ta'lim oluvchi bu usulda o'z nuqtai – nazarini isbotlash, himoya qilish, har qanday vaziyatga ma'qul yechimini topish, muloqot olib borish, himoya qilinayotgan fikrning to'g'riligiga appanentlarni ishontirishga o'rgatadi. U mavzuni to'la tahlil qila oladigan chigallarni ham yozishga juda mos. O'qituvchi topshiriqni tahlil qilishga har bir o' o'quvchining to'liq ishtirokni kuzatib boradi, tekshiradi.
- Aqliy hujum usulini asosan V – sinf o'quvchilari bilan olib borilganda o'quvchiga dars juda qiziqarli va hammani jalb etadi. Ijodiy natijaga erishib, samaradorlikka erishiladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerak - ki ushbu usul o'quvchilarning aniq, erkin fikrlarini bayon eta oladigan, mavzuning muammoli tarafini darhol yechishga o'rgatadigan usullardan biridir.

Bu metodlardan ijodkor o'qituvchilar o'z faoliyatlarida u yoki bu darajada foydalanadilar. Standart, ya'ni ko'p marta takrorlanib turiluvchi darslarni vaqti-vaqti bilan o'ziga xos darslar bilan har xil didaktik o'yinlar, o'qitishning texnik vositalaridan, slaydlar, rasmlar, kino va videotasvirlar, ko'rgazmalar, maketlar, buyumlar, kitoblar va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yangilab turish maqsadga muvofiqdir. Har bir o'qituvchi tomonidan individual va o'z xohishiga binoan darslarning noan'anaviy tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'ladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Shuning uchun xam 1997 yilning avgust oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida hayotimizning ta'lim tarbiyaga daxldor bo'lgan 2 ta muhim hujjat kadrlar tayyorlash milliy dasturi va ta'lim to'g'risidagi qonun loyihalari xam muhokama qilindi. Bu ikkala hujjat loyixasi yuzasidan prezidentimiz I. Karimov Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori mavzusida katta nutq so'zladi. Prezidentimiz nutqida shuningdek ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilgari surilgan ta'lim tarbiya xususidagi g'oyalar ko'rsatmalar yo'l-yo'riklar O'zbekiston taraqqiyotining poydevori bo'ladigan barkamol avlodni tarbiyaviy yetishtirishda o'qituvchi murabbiylar uchun muhim dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning 26-moddasida o'kitishning ilg'or shakllari va yangi pedogogik texnologiyalar o'quv jarayoniga joriy etilsin deyilgan bo'lsa, kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim berishning ilg'or pedogogik texnologiyalarini zamonaviy o'kuv – uslubiy majmualarini yaratish va o'quv tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash talab etiladi. Biz ushbu maqolada avvalo texnologiya va yangi pedagogik texnologiya tushunchalari tavsifiga so'ngra yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishda ko'zlangan masalalarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Texnologiya - o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularning ongini rivojlantirib borish san'ati mahorati va usullari majmui to'g'risidagi ta'limot degan ma'noni anglatadi.

Yangi pedagogik texnologiya deganda faqat bugina emas zamonaviy (noananaviy) o'quv uslubiy majmualarini yaratish, o'quv – tarbiyaviy jarayonini didaktiv jihatdan ta'minlash, shuningdek o'qitishning yangi samarali vositalaridan foydalanishga asoslanadigan o'quv jarayonining o'zagi va shu jarayonda o'quvchilarda sodir bo'ladigan sifat o'zgarishlari ham tushuniladi.

Bugungi kunda yangi pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga joriy etishdan ko'zlangan maksad: birinchidan o'qituvchilarni dars jarayonida o'quvchilarning bilim faolligini ijodiy mustaqilligini esda saqlash qobiliyatini rivojlantirishgina yordam beradigan o'kitish va o'rganishning no'anaviy yangi usullari bilan qurollantirish. Ikkinchidan: ularni o'quvchilarning sevgi-idrok, tasavvur fikr, hissiyot irodaviy harakter kabi ichki ruhiy psixik faolligini kuchaytirish va dunyo qarashini tarkib toptirish aqliy rivojlanishiga ko'mak beriladigan o'qitish va o'rganishning yangi no'anaviy usullari bilan tanishtirishdan iborat.

Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tish joizki o'quvchi javob bera olmaydigan xar qanday savol ham muammoli vaziyatni vujudga keltira olmaydi. O'qituvchi u yoki, bu mavzuni bayon etish jarayonida muammoli vaziyat tugdirmok uchun eng avvalo ukuvchilarga havola etiladigan savollarni muammo tarzida tariflab bermog'i zarur.

Darsda o'kituvchi bosh fugura, bu axborot berish matnlarni bayon qilish, tezroq ko'proq o'kitish bilan ovora. Lekin ularni qabul qilish jarayoni xar xil xohish istaklari turlicha ular passiv eshituvchi, quloq soluvchi bularni o'quv jarayonida ma'suliyatini javobgarlik hissini susaytiradi. Demak ular fikr yuritish mulohaza qilish hulosa chiqarishdan uzoqda. Unda nima qilmoqlari kerak?

Dars jarayonida ta'lim tarbiyada o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch bo'lishi kerak yangi o'kitish o'rganish, mutoola qilish o'quvchi miyasiga o'tishi kerak, xulosa qilib aytsak:

- O'qituvchi o'qitishdan o'qishni o'rgatishga o'tishi;
- Bilimni berishdan bilimni mustaqil olishga o'rgatishi zarur;
- Unda o'qituvchi kim? U nima qiladi?
- U o'quvchining o'qishiga muhit yaratadi, yo'naltiradi.

Qiziqish orttirish his tuyg'u uyg'otishi bilan shug'ullanadi. O'quvchi qobiliyati iste'dodiga ta'limni tanlaydi. Ma'lumki:

Motivatsiya - diqqatni tortish ichki tuyg'u, istak zaruriyatni shakllantirishdir.

Pedagogikada, ma'lumki didaktik jarayon uch komponentdan iboratdir.

O'kuv jarayoni:

1. Motivatsiya
2. Bilish faoliyati
3. Boshqarish faoliyati


2.2. V sinf –Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida axborot kommunikasion vositalardan foydalanish orqali motivatsiya bosqichini amalga oshirish

Hozirgi paytda o'quv materiallari, axborotlarni ekranda ko'rsatish imkoni vujudga kelishi va rivojlanishi bilan o'quv jarayonida erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etilishi, iqtisodiy samara berish bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkoniyat yaratib beradi. Maxsus ixtisoslashtirilgan auditoriyalar, chunonchi, kompyuter, televizor, videomagnitofon bilan ta'minlangan auditoriyalarda dars o'tish borgan sari ommalashib bormoqda. Hatto uni alohida videometod sifatida talqin etilmoqda. Ayniqsa, o'quv jarayoniga kompyuterning kirib kelishi barcha didaktik funksiyalarni muvafaqqiyatli bajarish imkoniga ega videometodni keng qo'llash imkonini beradi. Buning natijasida uni kompleks didaktik texnologiya deb ham atalmoqda. U:

- * o'quvchi o'quvchilarga o'rganayotgan mavzusi, hodisa, jarayon, faoliyat bo'yicha to'liq, ishonchli axborot berish;
- * o'quv jarayonida ko'rgazmalilikning rolini oshirish;
- * o'quvchilarni xohish, talab, ehtiyojlari, qiziqishlarini qondirish;
- * o'qituvchining o'quvchilarning bilimini, ko'nikmalarini sinash bilan bog'liq texnik ishlardan ozod qilish, samarali aloqa o'rnatish;
- * o'quvchilarni o'zlashtirishi bo'yicha ob'yektiv hisobot, to'la va uzluksiz nazoratni tashkil etish imkonini beradi.

Dars jarayonida axborot texnologiyadaridan foydalanishda asosiy o'rinda multimedia turadi.

Multimedia informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika, animasiya (ob'yektlarning fazodagi, ekrandagi harakati) jadvallari asosida o'quv materiallarini o'quvchi, o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir.



2-chizma

Multimedia rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyasidir. Uning ajralib turuvchi belgilariga quyidagilar kiradi: Axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy: matn, jadvallar, bezaklar, grafiklar, diagramma va boshqalar. Original turlar: nutq, musiqa, videofilmlardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalarni bir dasturiy mahsulotda integrasiyalaydi. Bunday integrasiya turli qurilmalar yordamida amalga oshiriladi.

Multimediada ishlashning quyidagi afzalliklari bor:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoni yaratiladi;
- ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa yanada ortadi;
- ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoni yaratiladi;
- olingan bilimlar nisbatan kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniga erishiladi.

POWER POINT dasturi multimedia tayyorlashda juda katta imkoniyatlarga ega. Ulardan foydalanib, turli mavzularda multimedia tayyorlash va dars jarayonida qo'llash keng yoyilib bormoqda. Natijada keyingi paytda alohida videometod sifatida pedagoglar tomonidan ajratib ko'rsatilmoqda.

Multimediadan o'quv jarayonida foydalanishning rivojlanishi turli-tuman multimedia mahsulotlarini, oxir-oqibatda elektron darsliklar paydo bo'lishiga


olib keldi. Ikkinchi tomondan, axborot texnologiyalarini rivojlanishi internet tarmoqlaridan keng foydalanishga yo'l ochdi. Shu bilan birga, multimedia vositalaridan keng foydalanishda ayrim ob'yektiv muammolar ham mavjud. Ulardan eng asosiysi, zarur kompyuter dasturlarining yetishmasligidir.

Undan tashqari, hozircha bizda tabiiy fanlardan dars o'tishda qo'llash mumkin bo'lgan o'quv videofilmlari juda kam. Lekin ularni o'quvchilar bilan birgalikda yaratish mumkin. Keyingi paytda masofadan o'qitishning borgan sari yoyilib borishi, darslik, qo'llanmalarning elektron versiyalarini yaratilishi, o'qitish jarayonida kompyuterlardan yanada kengroq foydalanishga olib keladi.

V-sinf Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursida “Quyosh, oy va yulduzlar” mavzusini o'tishda axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

9-mavzu: Quyosh, oy va yulduzlar

Quyosh — Yerga eng yaqin bo'lgan qizib yotgan yulduz — olov shardir. U quyosh sistemasining o'rtasida joylashgan. Quyosh — Yerdagi yorug'lik va issilik manbai. Uning atrofida 8 ta sayyora aylanib turadi. Bular: Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun sayyoralaridi. Sayyoralarning yulduzlardan farqi shuki, ular nur sochmaydi, quyoshdan tushgan nurni qaytaradi xolos. Olimlar murakkab asboblar, har xil teleskoplar yordamida sayyoralar va ularning yo'ldoshlari asosan bir xil moddalardan tuzilganini aniqlashgan. Sayyoralarning yulduzlardan yana bir fariqi shuki, ular koinotdagi o'z o'rinlarini ancha tez o'zgartirib turadi.



Quyosh sistemasi (Quyosh va uning atroflaridagi sayyoralar)

Mavzuni tushuntirishda Quyosh sistemasining tuzilishi, sayyoralarning harakatlarini multimediya orqali ko'rsatilsa o'quvchilarda motivatsiya vujudga keladi. Eshitish, ko'rish, jarayonni kuzatish orqali bilim olish samaradorligi ortib boradi.

MOTIV (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil, vaj. Motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqalar motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida motiv atamasi sub'yektni faollashtiruvchi turli **hodisa** va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Hara-kat faoliyatning tarkibi bo'lganligi tufayli u faoliyatning maqsadi va motivi orqali boshqariladi. Ba'zan motiv tushunchasini «emosiya», «maqsad», «ustanovka» atamaları bilan almashtirish hollari uchraydi. Goho turtki, qo'zg'ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi.

Motivatsiya (qiziqishni uyg'otish)ning mohiyati, o'quvchining o'quv-biluv faoliyatini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Bu asos soluvchi qoidadir. Motivatsiya bosqichi o'quv mashg'ulotiga qiziqishni uyg'otish, bilim olishga rag'batlantirish, mashg'ulotlar paytida faol ijodiy fikrlashga da'vat etishdir.

Ma'lumki, o'quv jarayoni uchta bir- biri bilan bog'liq o'qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan:

1. Motivlar (M);
2. O'quvchining o'qish faoliyati (O'F);
3. O'qituvchining boshqaruvchilik faoliyati (BF).

Shunday qilib, o'quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin.

$O'J=M+O'F+BF$:

Mana shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo'lga qo'yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalashtirish yoki o'quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik texnologiyaning bu qismi amalda qo'llanilganda ta'limning tabiatga uyg'unlik qoidasiga asoslansa, ya'ni o'quvchining tabiiy xususiyatlari - qiziqishi, istak-xohishi ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor.

2.3. Mustaqil ishlarni tashkil etishda motivatsiyaning ahamiyati

Ma'lumki, o'qitishning asosiy shakllari – ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, maslahat darsi auditoriyada o'tkaziladi. Ularni tashkil etish mavzular murakkabligi darajasiga, beriladigan axborot miqdoriga ko'ra avvaldan rejalashtiriladi, o'quv soatlari ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o'tkazilsa-da, unga ham avvaldan soatlar belgilanadi.

Bilim olish, maxsus malakaga ega bo'lish o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda auditoriyada o'tiladigan darslardan tashqari ular tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar ham katta rol o'ynaydi.

Mustaqil ish faoliyatida bilimlarni egallash bilan birga, ko'nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi.

Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo'lishini ta'minlashda ikki narsaga e'tibor qaratish kerak:

A) mustaqil ish - o'qishning, aqliy mehnatning alohida turi.

B) axborotning asosiy qismini o'quvchi mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa, internetning kirib kelishi bilan uning doirasi yanada kengaydi.

Ta'lim berishning an'anaviy usullari orqali o'quvchilarni mustaqil fikrlash, faollikka o'rgatish qiyin. An'anaviy ta'limda tushuntirish, so'rash, mustahkamlash, baholash tartibiga amal qilinadi.

Bugungi kunda quyidagilar an'anaviy ta'limning kamchiliklari sifatida e'tirof etilmoqda:

✓ ta'lim jarayonida o'qituvchining ko'proq faollik ko'rsati-shi, faqat tushuntirish, buyruq berish, o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi;

✓ ta'lim jarayonida o'quvchilarga asosan nazariy bilim (ma'lumotlar) berilishi;

✓ ta'limda majburiylik, nasihatgo'ylik, qattiqqo'llik, avto-ritarizm tamoyillariga amal qilish;

✓ o'quvchilarning faollik ko'rsatmasligi, faqat o'qituvchining ma'ruzasini tinglashi va topshiriqlarni bajarishi, ularning mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka o'rgatilmaligi;

✓ ta'limning o'rtacha darajada bilim oluvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi.

O'quvchi mustaqil ishlash ko'nikmasini egallamasa, zamon talabi darajasidagi mutaxassis bo'lib yetisha olmaydi, chunki o'quvchining o'qish yillari davomida olgan bilimlarining ko'p qismi u faoliyat boshlagunga qadar eskiradi, ko'pgina bilimlar esa unutiladi. Bilimning eskirishi tez, axborot oqimi nihoyatda katta bo'lgan hozirgi davrda mustaqil o'qishga, o'z ustida tinmay ishlash, izlanishga o'rganish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilishdan maqsad, raqobat bardosh mutaxassis va talabga javob beradigan, yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda talabalarni o'quv-tarbiyaviy, ilmiy faoliyati, mustaqil ishlash vaqt byudjeti, tadqiqot ob'yekti alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning reyting tizimi, ayniqsa, o'qish jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklar, axborot hajmining kattaligi o'quvchilardan mustaqil ishlash va vaqtdan to'g'ri foydalanishni, uni tejash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Bilim olish, maxsus malakaga ega bo'lish, o'quvchilarni dunyo-qarashini shakllantirishda auditoriyada o'tiladigan darslardan tashqari o'quvchilar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar ham katta rol o'ynaydi. Demak, o'quvchilarning o'z ustilarida mustaqil ishlashlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili uning sistematik tarzda, ya'ni doimiy, uzluksiz ravishda amalga oshirishdir. Ma'lumki, o'quv jarayonini tashkil etishda qat'iy ketma-ketlik, uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. O'quvchi auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirish uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Bugungi o'tiladigan mavzuni yaxshi tushunishi va o'zlashtirishi uchun o'tilganlarni o'z qobiliyati va olgan bilimi darajasini yanada chuqurlashtirishga

intilishi, mustaqil takrorlashi, o'rganishi zarur. Chunki ma'ruzada o'quvchiga yo'llanma beriladi. Dars davomida mavzuga tegishli barcha asosiy savollarni muhokama qilib bo'lmaydi. Uning iloji yo'q, ma'ruzada o'tilgan, muhokama qilingan masalalarni psixologlarning tadqiqoti natijalariga ko'ra, atigi 5 foizi o'quvchilar yodida qolar ekan. O'zi o'qib o'rgangani, o'rganganlarini boshqalarga o'rgatishi esa bir necha baravar ko'p yodida qolar ekan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, o'quvchining o'zini mustaqil tayyorlanib o'qishi fanni o'rganishda, uni asosiy mazmunini tushunish va o'zlashtirishida, tahlil qilishi, o'z fikrini ifodalashida muhim rol o'ynaydi.

O'quvchining mustaqil ishidan maqsad o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

O'quvchining mustaqil ishi vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularning qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;
- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko'rsatilgan kamchiliklarni qayta ishlash.
- ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar.

O'quvchilarning mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lib, ularni

bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutilgan. Uni har bir o'quvchi bajarishi shart. Ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya'ni o'quvchilar o'z xohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishni tashkil etishning muhim xususiyati, uni o'quvchining o'zi tashkil qiladi. Shuning uchun uni rejalashtirish, vaqtini rasional taqsimlashda o'quvchiga yordam lozim.

Mustaqil ishni bajarish uchun o'quvchi o'zini-o'zi majbur qilishi kerak. Bunda ham sub'yektiv omil asosiy o'rinda turadi. O'quvchilarni mustaqil ishini tashkil etishda o'qishni boshqa shakllariga o'xshab, umumiy prinsiplar mavjud. Mustaqil ishni shu prinsiplar asosida tashkil qilish kerak. Mustaqil ishni tashkil etishda oddiy elementar prinsiplarni o'zlashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega va ana shu murakkab jarayonni to'laligicha qamrab oladi.

Har bir o'quvchi mustaqil ishni tashkil etishni nimadan boshlashi kerak? Unga qanday maqsad qo'yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalanilishini aniq ko'z oldiga keltira olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas. Mustaqil ishni qanday bajarishni har bir o'quvchining o'zi tashkil etadi. Muvafaqqiyatga erishish uchun o'quvchining o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak.

Mustaqil ishlash quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Dars o'tilgandan so'ng bajariladigan ishlar, uy vazifalarini bajarishda darslik, o'quv qo'llanmalari bilan ishlash, konspekt tayyorlash.

Tipik topshiriqlarni yechish. Bunda o'quvchi avvalgi bilimlarini xotirasida qayta tiklaydi va qisman qayta o'zgartirib, aniq topshiriqlarda qo'llaydi. Masalan: masala, mashq yechish;

2. O'rganilgan bilimlarni tipik bo'lmagan sharoitda qo'llash. O'quvchi o'rgangan bilimlaridan yangi sharoitda foydalanadi. Sharoitlarda ma'lum umumiylik bo'lishi mumkin.

3. Ijodiy faoliyatga asos yaratish. Bunda o'quvchi o'rganilayotgan sohaning mohiyatiga tushunadi, uning yangi munosabat, bog'lanishlarini aniqlaydi, g'oyalar va tushunchalarni yangi sharoitga bog'laydi.

Barcha mustaqil ishlar o'quvchilarda ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. O'quvchi ijodiy ishlashga o'rgatilmasa, u ma'lum mavzuga oid materiallarni turli manbalardan ko'chirib kelish bilan kifoyalanib qolishi hamda o'zi mustaqil fikr bildirishga qiynalishi mumkin.

Mustaqil ishlarning ajralmas qismi bu mustaqil tahsildir. O'quvchilarning mustaqil tahsili ularni o'z bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish, mavjud malaka va ko'nikmalarni takomillashtirish hamda ularning yangilarini o'zlashtirishga bo'lgan intilishidir.

Mustaqil tahsilning asosiy maqsadi o'quvchilarni shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirishda o'z ustida ishlash ustunligidir. Mustaqil tahsilning asosiy metodi adabiyotlar ustida individual ishlashdir. Bu metod axborotlar oqimida eng zarur axborotni topish, unga baho berish, ushbu axborotdan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanish malakasini shakllantiradi.

Xulosa va takliflar.

Geografiya ta'limi yosh avlodga tabiiy muhit va uni muxofaza qilish hamda undan oqilona foydalanish, siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy fanlar orasidagi fan bo'lgani uchun tabiat va jamiyat haqida bir butun, yaxlit bilimlarni beradigan yagona fandır. Geografiya ta'limi har tomonlama yetuk va komil insonni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birgalikda Olam sirlarini o'rganadigan fundamental fan hisoblanadi.

O'qitish tarixiga nazar tashlasak, o'tmishda o'qitishning bir necha didaktik tizimlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiq etilgan. (Ya.A. Kamenskiy 1592-1670, I.F.Gerbart 1776-1841, J.D'yui 1859-1952) Bu tizimlar o'z davrlarida, o'sha davr jamiyati uchun xizmat qilgan va ozmi-ko'pmi o'z samarasini bergan. Masalan: XYII-XIX- asrlarda bilim o'quvchilarga bir umrga berilgan, ya'ni o'quvchini maktabda olgan bilimlari unga umr bo'yi asqotgan. O'quvchilarni ta'lim olish jarayonida o'qitiladigan fanlar va foydalanadigan adabiyotlari ham uncha ko'p bo'lmagan. Jamiyatning rivojlanib borishi, ijtimoiy faoliyat turlarini kengayishi bilan talablar ortib borgan sari, yangidan - yangi didaktik tizimlar ishlab chiqildi va o'qitishda joriy etib borildi.

Keyinchalik fan-texnikaning rivojlanishi va bugungi kunga kelib yuksak axborot kommunikasion texnologiyalarni yaratilishi natijasida globallasuv jarayoni vujudga keldi va bugunga kelib o'quvchilar bir umrga yetadigan bilimlarini bir marta emas, balki bugun va ertaga darkor buladigan bilimlarni har kuni va xar vaqtda olib borishga to'g'ri kelmokda,

Chunki bugungi fan-texnika va axborot kommunikasion texnologiyalari izchil rivojlanib borayotgan bir paytda "bugungi olingan bilimni-ertaga yana takomillashtirib borish"ni talab qilmoqda. Bunday katta ko'lamdagi axborotlarni o'zlashtirish. taxlil qilish, o'rganish va ulardan amalda unumli

foydalanish uchun o'quvchi keng ilmiy dunyoqarash va yuqori intellektual qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q” asarida komil inson tushunchasiga aniq ta'rif berdilar. “Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, o'z xulq – atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la oladigan, o'zining bilimi, ma'rifati bilan yaksalgan kishilarni tushunamiz”. Ta'lim tizimi va maktab oldiga komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish maqsad qilib qo'yildi.

Men bitiruv malakaviy ishimni yozish davomida ta'limda, ayniqsa geografiya ta'limida motivatsiya qanchalik darajada muhimligini anglab yetdim. M.Mahmudov, A.M. Matyushenko, I.YA. Lerner “Zamonaviy dars – bu muammoli ta'limdir” deb ta'rif berganlar. Muammoli ta'limni tashkil etishda usullarni tanlash g'oyat muhimdir.

Bitiruv malakaviy ishimni yozish davomida, pedagogik amaliyotda qo'llagan usullarim asosida quyidagi xulosa va takliflarga keldim:

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi, bozor iqtisodiyotiga asta – sekin, bosqichma – bosqich o'tishimiz, ko'p tarmoqli mulk shakllarining paydo bo'lishi, jamiyatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy – siyosiy o'zgarishlar va fan – texnikaning jadallik bilan rivojlanishi ta'lim mazmuniga, maktab hayotiga qolaversa, dars mohiyati va mazmunining takomillashuviga ob'yektiv omil vazifasini bajaradi.

Respublikamizda ta'lim sohasida chuqur islohotlarning o'tkazilayotganligi, xorijdagi ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, jahon ta'lim standartlariga yaqinlashishga intilish, darslik va o'quv dasturlari yangi avlodning yaratilishi darsni ixcham va qiziqarliroq shaklda tashkil etishimiz uchun zamin bo'ladi.

Geografiya darslarida motivatsiya bosqichining markazida, o'quvchi shaxsining mustaqil tafakkurlay olishga o'rgatish masalasi turadi. Bular

o'quvchilarning darsga bo'lgan munosabati va ilmiy bilim olishga bo'lgan havasini oshiruvchi muhim turtki bo'ladi, desak xato bo'lmaydi.

Motivatsiya bosqichini qo'llashning muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, o'quvchida yashirinib turgan qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqaradi hamda ularga o'z imkoniyalariga bo'lgan ishonch bilan yondashishni tarbiyalaydi. O'quvchiga har bir fandan o'rganiladigan ilmiy tushuncha va qonuniyatlarni shunchaki o'rganib qolmasdan, balki uni keltirib chiqaruvchi sabablarini ham aniqlashtirishga yordam beradi.

O'quvchida ilmiy dunyoqarashini shakllanuvda, o'zligini tanishtirishda, murakkab vaziyatlarda o'zini erkin tutib mustaqil ravishda to'g'ri yo'l tanlay bilishida motivatsiya bosqichining ahamiyati katta ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildim. Men ham ushbu ishimni kelgusida davom ettirib, ularni to'ldirib va yangilarini o'ylab topaman.

Geografiya darslarida motivatsiya bosqichidan foydalanilsa o'quvchi yoshlarning, o'quvchilarning potensial imkoniyatlarini harakatga keltirgan bo'lamiz. Ular o'zlarining intellektual salohiyatlariga, qobiliyatlariga ishonib boradilar. Erishgan yutuqlaridan xursand bo'lishlari evaziga ulardan ichki potensial harakat yuzaga keladi.

Natijada bilim egallashning yopiq mexanizmini ishga tushushiga sababchi bo'lamiz.

Men xulosa qilib aytmoqchimanki ushbu bitiruv malakaviy ishimni yozish jarayonida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldim va ushbu ishimni kelajakda ham davom ettirmoqchiman. Bu bitiruv malakaviy ishimni yozishimga menga yordamlashgan, kafedramiz ijodkor o'qituvchilaridan ko'plab maslahatlar oldim va menga yaqindan yordam berib, o'zlarining beminnat xizmatlarini ayamagan ilmiy rahbarim M. K. Ergashevaga, dotsent X.R. Toshov va kafedramiz barcha o'qituvchilariga minnatdorchilik bildiraman, ularning ishlariga omad, sog'liq – salomatlik tilab qolaman.

Adabiyotlar

1. I.A. Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2 – jild. Toshkent, O'zbekiston, 1996. 380 b.
2. I.A. Karimov. Asosiy vazifalarimiz - vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent, O'zbekiston, 2010. 77 b.
3. Barkamol avlod orzusi (to'ldirilgan nashr). Toshkent, O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 248 b.
4. Bahromov Q.H, Safarov A. Noan'anaviy darslar va ta'limning interfaol usullari. Buxoro, 2004. 80 b.
5. Bepalko V.P. Sladoyeleviye pedagogicheskiy texnologiya. Moskva. Pedagogika, 1989.
6. Yodgorov A.I. Ta'lim jarayonida interfaol metodlarini qo'llash. Buxoro. 2010. 76 b.
7. Jo'rayev A.S., Bahromov Q.H. Ta'limning interfaol usullari. 1 – kitob. Buxoro, 2009, 80 b.
8. Klarin M.V. Pedagogicheskoye texnologiya v uchebnoy prosess. Moskva, Znaniye, 1989.
9. Mavlonova X., To'rayev O., Xoliqberdiyev R. Pedagogika. Toshkent, O'qituvchi, 2001. 512 b.
10. Mirzaliyev T. O'rta Osiyo kartografiyasini tarixini o'rganishda H.H.Hasanovning o'rni. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. T.: 28-29 may 1999. B.7-9
11. Mo'minov O. Zamonaviy geografiya darsiga qo'yilgan talablar. Toshkent, O'qituvchi, 1991.
12. “Ma'rifat” gazetasi. 2005. 7 – son.
13. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, Nasaf, 2000.
14. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. – T.: Ziya, 1999. – 181 b.

15. Sosialno-ekonomicheskaya geografiya zarubejnogo mira. Pod. red. Volskogo V.V. – Moskva, 2007. 498 s.
16. Farbenman V.S, Muhsinov R, Jumaboyev L.M. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishni zamonaviy pedagogik usullari. Toshkent, Fan, 2002.
17. Farbenman V.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, Fan, 2000.
18. Qurboniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. Toshkent, 2001. 211 b.
19. “Xalq ta’limi” jurnali. Toshkent. 1999. 6 – son.
20. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 4 – jild. Toshkent, 2004. 707 b.